



*hokimligi
maktabgacha va maktab ta'lifi
boshqarmasi*
*maktabgacha va
maktab ta'lifi bo'limi tasarrufidagi
—umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
ning
20__-20__-o'quv yili 5-6-sinflar bo'sh
o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun
adabiyot fanidan
“YOSH ADABIYOTSHUNOS”*

**TO'GARAK
HUJJATLARI**

To‘garak a‘zolari haqida ma’lumot

| Nº | Familiya ismi va sharifi | Tug‘ilgan sanasi | Sinfı | Manzili (to‘liq) | Ota-onasi (Ismi sharifi) | Telefon (uy yoki mobil) | Izoh |
|-----------|---------------------------------|-------------------------|--------------|-----------------------------|-------------------------------------|------------------------------------|-------------|
| 1. | | | | | | | |
| 2. | | | | | | | |
| 3. | | | | | | | |
| 4. | | | | | | | |
| 5. | | | | | | | |
| 6. | | | | | | | |
| 7. | | | | | | | |
| 8. | | | | | | | |
| 9. | | | | | | | |
| 10. | | | | | | | |
| 11. | | | | | | | |
| 12. | | | | | | | |
| 13. | | | | | | | |
| 14. | | | | | | | |
| 15. | | | | | | | |

| | | | | | | | |
|------------|--|--|--|--|--|--|--|
| <i>16.</i> | | | | | | | |
| <i>17.</i> | | | | | | | |
| <i>18.</i> | | | | | | | |
| <i>19.</i> | | | | | | | |
| <i>20.</i> | | | | | | | |
| <i>21.</i> | | | | | | | |
| <i>22.</i> | | | | | | | |
| <i>23.</i> | | | | | | | |
| <i>24.</i> | | | | | | | |
| <i>25.</i> | | | | | | | |
| <i>26.</i> | | | | | | | |
| <i>27.</i> | | | | | | | |
| <i>28.</i> | | | | | | | |
| <i>29.</i> | | | | | | | |
| <i>30.</i> | | | | | | | |

O'tkazilgan xona _____

“

”To ‘garak mashg‘ulotlar o‘tkazilish sanalari

To‘garak rahbari_

“

_” To‘garak mashg‘ulotlar o‘tkazilish sanalari

To‘garak rahbari_

“TASDIQLAYMAN”

MMIBDO‘

20_-20_-o‘quv yiliga bo‘s sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun tuzilgan “Yosh adabiyotshunos” to‘garagining ISH REJASI

| Nº | Yillik ish reja mavzulari | Soat | Sana | Izoh |
|-----|--|------|------|------|
| 1. | Adabiyot - so‘z san’ati | | | |
| 2. | Maqollar | | | |
| 3. | Topishmoqlar | | | |
| 4. | Imom al-Buxoriy (810-870) | | | |
| 5. | Imom al-Buxoriy Hadislardan namunalar | | | |
| 6. | Ezop (miloddan avvalgi VI asr) | | | |
| 7. | Ezop masallari va ularning ibratlari haqida | | | |
| 8. | Uch og‘a-ini botirlar» ertagi haqida | | | |
| 9. | “Sausambul” ertagi | | | |
| 10. | Oygul bilan baxtiyor | | | |
| 11. | Maqsud shayxzoda (1908-1967) | | | |
| 12. | «Iskandar zulqarnayn» ertak-dostoni haqida | | | |
| 13. | Hans Kristian ANDERSEN (1805-1875) | | | |
| 14. | Abdulla Qodiriy Uloqda (Hikoya) | | | |
| 15. | Mirkarim Osim (1907-1984) | | | |
| 16. | Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek | | | |
| 17. | Usmon Nosir | | | |
| 18. | Usmon Nosir She’riyati | | | |
| 19. | Mirtemir hayoti va ijodi | | | |
| 20. | Mirtemir she’riyati | | | |
| 21. | Zahiriddin Muhammad BOBUR (1483-1530) | | | |
| 22. | Ruboiy haqida tushuncha | | | |
| 23. | Dunyoning ishlari | | | |
| 24. | Sa’diy SHEROZIY | | | |
| 25. | Sa’diy sheroziy hikmatlar | | | |
| 26. | Abdulla Avloniy | | | |
| 27. | «Hayrat ul-abror» dostonidan | | | |
| 28. | Abdulla Avloniy VATAN SHE’RI | | | |
| 29. | Vatanni suymak («Turkiy Guliston yoxud axloq» asaridan | | | |
| 30. | Erkin Vohidov «Nido» dostoni haqida | | | |
| 31. | Abdulla Oripov | | | |
| 32. | Abdulla Oripov O‘zbekiston qasidasi | | | |
| 33. | Ifodali o‘qish mashqi | | | |
| 34. | Nodar DUMBADZE | | | |

Mavzu: ADABIYOT - SO'Z SAN'ATI

Mashg'ulotning maqsadi:

a) ta'limiylar: Adabiyot fanining nazariy va amaliy asoslarini o'rganish jarayonida o'quvchilarda estetik did,

estetik ong, adabiyotga muhabbat, badiiy tafakkur va tasavvurini kamolga yetkazish va barkamol avlod tarbiyasiga zamin yaratish.

b) tarbiyaviy: Adabiyot fani orqali o'quvchilarga DTS asosida Mashg'ulot berish. Shu bilan bir qatorda milliy va

mumtoz adabiyotimizga milliy iftihor, qadriyat sifatida e'tirof etish va uni hurmat qilishga o'rgatish.

c) rivojlantiruvchi: O'quvchilarni tafakkur va idrokini kengaytirish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

kutubxonalardan qiziqarli badiiy kitoblarni topa olish, ulardan foydalanish.

O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

doimiy ravishda mustaqil o'qib-o'rganish, o'z-o'zini rivojlantirish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

oila, mакtab, mahallada bo'layotgan jarayonlarda faol ishtirok etish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

vatanni sevish, tengdoshlari va boshqa insonlar bilan xushmuomalada bo'lish.

***Mashg'ulot uslubi:* an'anaviy, noan'anaviy (tagiga chizilsin)**

Mashg'ulot jahozi: Mashg'ulotlik, kompyuter, tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar...

***Mashg'ulot shiori:* Adabiyotga e'tibor – kelajakka, ma'naviyatga e'tibor.**

Foydalilaniladigan adabiyotlar:

1) «Adabiyot» 5-sinf uchun Mashg'ulotlik.

2) **5-sinf** «Adabiyot» Mashg'ulotligining elektron varianti.

I. Mashg'ulotning borishi:

a) salomlashish

b) navbatchilik hisoboti, sindf tozaligi va davomatni nazorat qilish

c) kirish suhbati, o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish

II. O'tgan mavzuni so'rash.


a) individual - tarqatma materiallar, kartochka.

b) Frontal (guruh bilan ishlash)

III. Yangi mavzu:

Qimmatli farzand, o'zingizning uch-to'rt yasharlik paytingizni eslaysizmi? Yodingizda bo'lsa, u paytlar televizorda beriladigan turli-tuman ko'rsatuvalar Sizni unchalik qiziqtirmsasdi. Agar buni eslolmasangiz, ukalaringizni kuzating. Ular televizor tomosha qilishdan ko'ra ertak eshitishni ko'proq yaxshi ko'radi.

Shunday ham bo'ladiki, buva va buvilar, ota va onalar har kuni aytaverib, ertaklari ham tugaydi. Eng qiziq ertaklar o'nlab marotaba qayta aytilsa ham bolajonlar jon qulog'i bilan eshitaveradi. Ularga ertak voqealari yod bo'lib ketadi. Lekin, baribir, bolalar ko'zlarini katta-katta ochgancha, bir nuqtaga tikilib ertak eshitishdan zerikmaydi.



Nega shunday? Nega oddiy gaplar emas, balki ertak va she'rlar odamni bu qadar o'ziga tortadi, deb o'yab ko'rganmisiz?

Keling, shu savolga birgalikda javob topaylik.

To'rt yildan buyon maktabga qatnab bilib oldingizki, odam bolasi boshqa mavjudotlardan o'zining fikrlay olishi bilan farq qiladi. U nafaqat o'laydi, fikrlaydi, balki bu fikr-o'ylarini so'zlar orqali boshqalarga ham bildira oladi.

Odamlar fikrlar ekan, bir narsani boshqasiga solishtiradi. Bunda ular nafaqat oqni qoradan, yaxshini esa yomondan ajratadi, balki nar-salar orasidagi o'xhash, bir-birini takrorlovchi jihatlarni ilg'aydi. Mana shu solishtirish jarayonida obrazli (timsolli) fikrlash hodisasi yuzaga keladi.

«Obrazli fikrlash» degan ibora Sizga sal og'irlik qilayotgan bo'lsa, buni bir sodda misol bilan tushuntiramiz.

Jajji ukalaringizning tiliga, xatti-harakatlariga e'tibor bering. Ular osmondagи bulutlarga qarab Sizga goh chopib borayotgan otqi, goh ulkan odam qiyofasini ko'rsatadilar. Bir sinchkov bola barg ustida sudralayotgan ipak qurtini har kuni qishlog'inинг chekkasidan o'tadigan poyezdga o'xshatsa, boshqa bola bahorda lolaqizg'aldoq bilan qoplangan Dalalarni qip-qizil gilamga qiyoslaydi. Bolajonlar loydan kulcha, qumdan uy, plastilindan qushcha yasar ekan, yodiga o'sha narsalarning surati — timsolini keltiradi. Qo'lidagini xayolidagiga o'xhatib yasashga urinadi.

Ertaklarda esa mana shunday obrazli fikrlashning rang-barang ko'rinishlari aks etadi. Ertak qahramonlari so'z va obrazli ifodalar yorda-mida ko'z oldingizda jonlanadi, turli sarguzashtlarni boshdan kechiradi. Voqealar shunday qiziqarli hikoya qilinadiki, o'zingizni xuddi ularning ishtirokchisidek his qilasiz.

Demak, odamlarning tabiatida bir narsani ikkinchi bir narsaga qiyoslash, hamma narsani so'z yordamida jonlantirishga moyillik, so'z san'atiga — adabiyotga qiziqish azaldan bor ekan, degan xulosaga kelsak bo'ladimi? Albatta, bo'ladi!

Ana endi ertak, she'r, hikoya ko'rinishida namoyon bo'ladigan adabiyot — so'z san'atining o'zi nima, u qanday ehtiyojdan paydo bo'ladi, degan savolga javob izlab ko'raylik.

Suhbatimiz boshida «odam boshqa mavjudotlardan o'zining fikrlay olishi bilan farq qiladi» dedik. Fikrlaydigan insonga esa xayolga berilish, orzu qilish, agar maqsadlariga erisha olmasa, armon chekish singari juda ko'p xususiyatlar ham xosdir.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: Og'zaki savol-javob.

V. Uyga vazifa.

VI. Mashg'ulot yakuni. Baholarni tahlil qilish.

Mavzu: MAQOLLAR

Mashg'ulotning maqsadi:

a) *ta'limiyl*: Adabiyot fanining nazariy va amaliy asoslarini o'rganish jarayonida o'quvchilarda estetik did, estetik ong, adabiyotga muhabbat, badiiy tafakkur va tasavvurini kamolga yetkazish va barkamol avlod tarbiyasiga zamin yaratish.

b) *tarbiyaviy*: Adabiyot fani orqali o'quvchilarga DTS asosida Mashg'ulot berish. Shu bilan bir qatorda milliy va mumtoz adabiyotimizga milliy iftihor, qadriyat sifatida e'tirof etish va uni hurmat qilishga o'rgatish.

c) *rivojlantiruvchi*: O'quvchilarni tafakkur va idrokini kengaytirish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish.

Axborotlar bilan ishslash kompetensiyasi:

kutubxonalardan qiziqarli badiiy kitoblarni topa olish, ulardan foydalanish.

O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

doimiy ravishda mustaqil o'qib-o'rganish, o'z-o'zini rivojlantirish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

oila, maktab, mahallada bo'layotgan jarayonlarda faol ishtirok etish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

vatanni sevish, tengdoshlari va boshqa insonlar bilan xushmuomalada bo'lish.

Mashg'ulot uslubi: an'anaviy, noan'anaviy (tagiga chizilsin)

Mashg'ulot jahozi: Mashg'ulotlik, kompyuter, tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar...

Mashg'ulot shiori: *Adabiyotga e'tibor – kelajakka, ma'naviyatga e'tibor.*
(I.A.Karimov)

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1) «Adabiyot» 5-sinf uchun Mashg'ulotlik.

2) **5-sinf** «Adabiyot» Mashg'ulotligining elektron varianti.

I. Mashg'ulotning borishi:

a) salomlashish

b) navbatchilik hisoboti, sind tozaligi va davomatni nazorat qilish

c) kirish suhbat, o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish

II. O'tgan mavzuni so'rash.


a) individual - tarqatma materiallar, kartochka.

b) Frontal (guruh bilan ishslash)

III. Yangi mavzu:

Maqol deb eshitgansiz, albatta. Kishilar uni ko'pincha, o'zaro suhbatda, bir-birlari bilan gaplashganlarida ishlataladilar. O'zingiz ham uni necha martalab ishlatsiz, faqat e'tibor qilmagansiz.

Maqol ibratl so'zdir. Shunday so'zki, so'zga husn beradi, fikrni tushunib olishni osonlashtiradi, uni yorqin, ta'sirchan qiladi. Shuning uchun ham maqol odamlar nutqida har doim hamroh bo'ladi. Kimki uni ko'p ishlatsa, o'shaning nutqini shirali deydilar va diqqat bilan eshitadilar. Shu sababli, maqollar badiiy adabiyotda, ya'ni she'r va dostonlarimizda, hikoya va romanlarimizda ham ko'p ishlataladi. Hatto, boshidan oxirigacha maqol bilan yozilgan



asarlarimiz ham bor. Masalan, Gulxaniy degan shoir butun bir asarini «Zarbulmasal» deb nomlagan. Unda Yapaloqqush va Boyo‘g‘lining quda-andachilik mojarolari tasvirlangan bo‘lib, ular tilidan 400 dan ortiq maqol keltiriladi. Ko‘ryapsizki, maqolda gap ko‘p.

«Maqol», aslida arabcha, «so‘z» degan ma’noni bildiradi. Uni «otalar so‘zi» ham deydilar. Bunday nomlash maqolni tushunishni osonlashtiradi. Haqiqatan ham, u ota-bobolarimizning qadim-qadimlardan ishlatib kelgan so‘zlar. Shu paytgacha eskirmay kelgan, unutilmagan so‘zlar.

Zamon o‘tishi bilan ko‘p so‘zlar eskiradi. O‘rniga yangisi keladi. Vaqt kelib, o‘sha yangisi ham o‘zgaradi, o‘rniga boshqasi keladi. Masalan, «qo‘l»ni bir vaqtlar «al» deyishgan. Hozir buni yoshlar emas, kattalar ham tushunmaydilar. Til-adabiyot bilan shug‘ullanuvchilargina biladilar. «Dunyo»ni «ochun», «kitob»ni «bitik» der edilar. Ko‘ryapsizki, hamma narsa o‘zgarishda ekan. Maqollar ham o‘zgaradi, lekin juda sekin o‘zgaradi. So‘zlar o‘zgarganda ham maqsadi, mazmun-mohiyati o‘zgarmaydi.

Xo‘sh, shunday qilib, maqol degani nima ekan?

Maqol ota-bobolarimizning uzoq yillar davomida ko‘rgan-kechirganlari, tajribalari asosida kelgan xulosa so‘zlaridir. Masalan, «Ona yurting omon bo‘lsa, rangi ro‘ying somon bo‘lmas», deymiz. Bu so‘zlar zamirida vatanidan ayrilib, musofirlikning achchiq alamilarini tortgan kishining, begona yurtlarda, notanish odamlar orasida vatansizlikdan rangi ro‘yi somon bo‘lgan kishining achchiq iztiroblari yotibdi. Yo bo‘lmasa, «O‘zgalar yurtida sulton bo‘lguncha, o‘z elingda cho‘pon bo‘l» degan maqolni oling. Bu so‘zlar tagida ham achchiq tajribalar, boshdan kechirishlar yotibdi. Beixtiyor shoh va shoir bobomiz Bobur yodga tushadi. Hindistonday katta mamlakatga podshohlik qilgan kishi yurtdoshlari Andijondan qovun olib borganlarida yig‘lagan edi. Haqiqatan ham, Vatan mehridan kuchli narsa dunyoda yo‘q.

Maqol yana qanday belgi-xususiyatlarga ega bo‘ladi?

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: Og‘zaki savol-javob.

V. Uyga vazifa.

VI. Mashg‘ulot yakuni. Baholarni tahlil qilish.

Mavzu: TOPISHMOQLAR

Mashg'ulotning maqsadi:

a) ta'limiylar: Adabiyot fanining nazariy va amaliy asoslarini o'rganish jarayonida o'quvchilarda estetik did,

estetik ong, adabiyotga muhabbat, badiiy tafakkur va tasavvurini kamolga yetkazish va barkamol avlod tarbiyasiga zamin yaratish.

b) tarbiyaviy: Adabiyot fani orqali o'quvchilarga DTS asosida Mashg'ulot berish. Shu bilan bir qatorda milliy va

mumtoz adabiyotimizga milliy iftihor, qadriyat sifatida e'tirof etish va uni hurmat qilishga o'rgatish.

c) rivojlantiruvchi: O'quvchilarni tafakkur va idrokini kengaytirish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish.

Axborotlar bilan ishslash kompetensiyasi:

kutubxonalardan qiziqarli badiiy kitoblarni topa olish, ulardan foydalanish.

O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

doimiy ravishda mustaqil o'qib-o'rganish, o'z-o'zini rivojlantirish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

oila, mакtab, mahallada bo'layotgan jarayonlarda faol ishtirok etish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

vatanni sevish, tengdoshlari va boshqa insonlar bilan xushmuomalada bo'lish.

Mashg'ulot uslubi: an'anaviy, noan'anaviy (tagiga chizilsin)

Mashg'ulot jichozi: Mashg'ulotlik, kompyuter, tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar...

Mashg'ulot shiori: *Adabiyotga e'tibor – kelajakka, ma'naviyatga e'tibor.*

(I.A.Karimov)

Foydalilaniladigan adabiyotlar:

1) «Adabiyot» 5-sinf uchun Mashg'ulotlik.

2) **5-sinf** «Adabiyot» Mashg'ulotligining elektron varianti.

I. Mashg'ulotning borishi:

a) salomlashish

b) navbatchilik hisoboti, sindf tozaligi va davomatni nazorat qilish

c) kirish suhbati, o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish


II. O'tgan mavzuni so'rash.

a) individual - tarqatma materiallar, kartochka.

b) Frontal (guruh bilan ishslash)

III. Yangi mavzu:

Barcha xalqlar og'zaki ijodining eng sevimli, qiziqarli va o'ziga xos turi topishmoqlar hisoblanadi. Topishmoqlarni ba'zan «topmacha», «jumboq», «matal» deb atashgan. Mumtoz adabiyotda ular «chiston» ham deyiladi. Topishmoq hammabop ommaviy janadir. Ularda xalq hayotining barcha qirralari — turmush madaniyati, urf-odatlari va boshqa jihatlari, inson va uni o'rab olgan olam o'xshatishlar, taqqoslashlar, savollar vositasida ifodalananadi. Topishmoqda yashirin ma'no ko'pincha majoziy shaklda keltiriladi, aniqrog'i, narsa nomi biron-bir qush, hayvon, buyum, o'simlikka qiyoslangan holda beriladi. Topishmoqni yechmoqchi bo'lgan kishi unda



keltirilgan ko‘chma belgilarini xayolida mantiqan solishtiradi va uni hayotdagi belgilarga to‘g‘ri kelishiga qarab javobni topadi. Topishmoq, avvalo, aqlni chiniqtiradigan, ayniqsa, bolalarni yoshlikdan mantiqiy fikrlashga undaydigan tarbiya vositasi bo‘lsa, ayni paytda ko‘ngilochar o‘yin ham hisoblanadi. Topishmoqni aytilgan vaqtida yecha olmagan kishi «jazolanadi». Topishmoqning javobi uchun «shahar» yoki «qishloq» beradi.

Topishmoqlar kishining tasavvuri va tafakkurini o‘siradi, ayniqsa, bolalarni topag‘on bo‘lishga, hozirjavoblikka o‘rgatadi.

Topishmoqlar nasriy va she’riy shaklda ixcham, sodda va ravon, qofiyali uslubda to‘qiladi. Ular o‘zida yashiringan predmetlar miqdoriga qarab bir va bir necha misrali bo‘lishi mumkin. Topishmoqlarda narsalarning sifati, belgilari, o‘xshashligi, mayda unsurlari batafsil ta’rif qilinadigan bo‘lsa, ular ikki, uch, to‘rt va undan ko‘p misralarda ifodalanadi. Bulardan tashqari qochiriqlar, ramziy obrazlar, mubolag‘ali so‘zlar ko‘paygan sari topishmoqlar hajmi oshib boradi. Topishmoqlarda o‘xshatish, sifatlash, mubolag‘a, kichraytirish, metafora, jonlantirish kabi badiiy tasvir vositalari va usullaridan keng foydalilaniladi.

Topishmoqlar tuzilishiga ko‘ra bir yoki bir necha predmetli bo‘lishi mumkin. Masalan, «Qoziq ustida qor turmas» (tuxum). Ushbu topishmoqda bir predmet - tuxum o‘zining rangiga ko‘ra qorga, shakli jihatidan o‘tkir uchli narsa «qoziq» ustida turolmaydigan suyri (ellips)ga o‘xshatilyapti. «O‘zi bir qarich, soqoli qirq qarich» (igna) topishmog‘i ham bir predmetli bo‘lib, ignani anglatadi. Undan o‘tkazilgan uzun ip soqolga o‘xshatilyapti. Topishmoqlarning bir necha predmet yashiringan turlari ham bo‘ladi. Masalan, «Bir daraxtda o‘n ikki shox, har shoxda o‘ttiz yaproq — bir yog‘i qora, bir yog‘i oq» topishmog‘ining javobi yil (daraxt), o‘n ikki oy (shox), o‘ttiz kun (o‘ttiz yaproq), o‘ttiz kecha va kunduz (bir yog‘i qora, bir yog‘i oq).

Topishmoq shunday ajoyib janrki, unda g‘ayritabiyy tuyulgan narsa aslida siz bilan biz kundalik hayotda ko‘rib-bilib turgan narsa bo‘lib chiqadi. «Teg desa tegmaydi, tegma desa tegadi» (lab) yoki

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: Og‘zaki savol-javob.

V. Uyga vazifa.

VI. Mashg‘ulot yakuni. Baholarni tahlil qilish.

veb-saytimiz: Zokirjon.com
Hujjat Word variantda beriladi.
Zokirjon Admin bilan

90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

Adabiyot fanidan 5-6-sinf bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarga 34 soatli to‘garakni to‘liq holda olish uchun telegramdan yozing.



Narxi: 20 ming so‘m

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To‘liq holda olganingizdan so‘ng:

Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA HIYONAT
QILMANG.**